XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 13-iyun VI-61-59-1-24-K/24 Marhamat tumani

“Geografik obektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ziyoratgoh, qabristonlar va istirohat bog‘i nomlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining Geografik obektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi xaqida 2024-yil 31-yanvardagi 03/08-851-sonli xati, 2024-yil 24-yanvardagi 05-19-01-105-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risida”gi 303-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obektlarning nomlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Marhamat tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Marhamat tuman hokimligi “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi”ning taklifi hamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining Geografik obektlarga nom berish va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi xaqida 2024-yil 31-yanvardagi 03/08-851-sonli xati, 2024-yil 24-yanvardagi 05-19-01-105-sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Geografik obektlarga nom berish va ularni kayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun xujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi bilan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan tumandagi 18 ta ziyoratgoh, 77 ta qabristonlar va 2 ta istirohat bog‘i nomlari ro‘yhati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (Z.Abduraxmonov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali boshlig‘i (O.Xamraqulov) tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Botirov), tuman statistika bo‘limi boshlig‘i (J.Abdukarimov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (lavozimiga ko‘ra), tuman davlat xizmatlari markazi rahbari (F.Komiljonov) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganziyoratgoh, qabriston, istirohat bog‘larilari nomlari bo‘yicha ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Marhamat tumani hokimining o‘rinbosari (A.Maxamatov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Qo‘chqarov), tuman bosh imom xatibi (T.Mukarramov), O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (M.Sotqulov)larga:

- qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ziyoratgoh, qabriston, istirohat bog‘larilari nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi O‘zDSt texnik shartlariga javob beradigan peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etsinlar.

5. Belgilansinki, geografik obektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy byudjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

6. Marhamat tuman Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (O‘.Qurbonova)ga 10 kun muddatda:

-ushbu qaror nusxasini geografik obektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyaga yuborish;

- O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligiga Geografik obektlar ziyoratgoh, qabriston, istirohat bog‘larilarga tavsiya etilgan nomlarni davlat reestriga kiritish uchun tegishli hujjatlar taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimligi matbuot xizmati va “Oq oltin” gazetasiga mazkur qarorni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish hamda “Oq oltin” gazetasida e’lon qilsin.

8. Ushbu qarorning ijro etilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha hamda “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyalari va tuman hokimining o‘rinbosari A.Maxamatov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

ABDULLAJONOV
BAXTIYOR
SODIKJONOVICH

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2024-yil 13-iyundagi
VI-61-59-1-24-K/24 -son qaroriga
1-ilova

“Geografik obektlarga nom berish va ularni kayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasiga asosan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan ziyoratgoh, qabristonlar va istirohat bog‘i nomlari ro‘yhati

T/r	Geografik obektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Izoh
1	2	3	4	5	6
1.	Qabriston	**“Yo‘lamatol” MFY**	Nomsiz	**Hojito‘pi**	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
2.	Qabriston	**“Qushchi” MFY**	Nomsiz	**Qushchi**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
3.	Qabriston	**“Durafshon” MFY**	Nomsiz	**Bahovuddinota**	Baxovuddin ota ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
4.	Qabriston	**“Ravot” MFY**	Nomsiz	**Maydonto‘pi**	Mahalliy aholi hududga monand ushbu nomni qo‘ygan.
5.	Qabriston	**“Shomat” MFY**	Nomsiz	**Pastki Shomat**	Mahalliy hududning pastki qismiga atb qo‘yilgan
6.	Qabriston	**“Paxtakor” MFY**	Nomsiz	**Andijonlik**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududga monand ushbu nomni qo‘ygan.
7.	Qabriston	**“Sho‘rqaqir” MFY**	Nomsiz	**Chambarak**	Mahalliy aholi hududga monand ushbu nomni qo‘ygan.

8.	Qabriston	**“Sho‘rqishloq” MFY**	Nomsiz	**Eski Sho‘rqishloq**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
9.	Qabriston	**“Sho‘rqishloq” MFY**	Nomsiz	**Yangi Sho‘rqishloq**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
10.	Qabriston	**“Gar-gar” MFY**	Nomsiz	**Hakimxo‘ja eshon**	Shu ismli Eshon, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
11.	Qabriston	**“Qoraqo‘rg‘on” MFY**	Nomsiz	**Tayit**	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
12.	Qabriston	**“Alitepa” MFY**	Nomsiz	**Alitepa**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
13.	Qabriston	**“Navro‘z” MFY**	Nomsiz	**Toshyo‘li**	Mahalliy hududning ma’lum qismi toshliq bo‘lganligi sababli.
14.	Qabriston	**“Oqbosh” MFY**	Nomsiz	**Eski Oqbosh**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
15.	Qabriston	**“Paxtakor” MFY**	Nomsiz	**Do‘ngtepa**	Mahalliy hududning do‘ngli joyida tashkil qilingan.
16.	Qabriston	**“Polvontosh” MFY**	Nomsiz	**Eski Polvontosh**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
17.	Qabriston	**“Turon” MFY**	Nomsiz	**Ruslar**	Mahalliy hududda rus millatiga mansub aholi uchun tashkil qilingan.
18.	Qabriston	**“Birlik” MFY**	Nomsiz	**Orol**	Mahalliy hududning orolga o‘xshash qismi mavjudligi uchun.
19.	Qabriston	**“Qovunchi” MFY**	Nomsiz	**G‘ishtmozor**	G‘ishtdan mustahkam qilib qurilganligi va mahalliy aholi kelishgan holda atalgan.
20.	Qabriston	**“Qovunchi” MFY**	Nomsiz	**Chekmozor**	Mahalliy hududning chekka qismida joylashganligi uchun.
21.	Qabriston	**“Sho‘rqaqir” MFY**	Nomsiz	**Eski Sho‘rqaqir**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni

					qo‘ygan
22.	Qabriston	**“Xo‘jaariq” MFY**	Nomsiz	**Jiydamozor**	Ushbu hududda jiyda daraxti ko‘p ekilganligi va mahalliy aholi kelishgan holda atagan.
23.	Qabriston	**“Qovunchi” MFY**	Nomsiz	**Qayrag‘och**	Ushbu hududda qayrag‘och daraxti ko‘p ekilganligi va mahalliy aholi kelishgan holda atagan.
24.	Qabriston	**“Chilon” MFY**	Nomsiz	**Kuygan Qqayrag‘och**	Ushbu hududda ekilgan qayrag‘och daraxti ko‘p kuygan tusga kirganligi bois va mahalliy aholi kelishgan holda atagan.
25.	Qabriston	**“Qorabog‘ish” MFY**	Nomsiz	**Qorovulmozor**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning himoyalangan jihatiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
26.	Qabriston	**“Rohat” MFY**	Nomsiz	**Qo‘ychixalfa**	XIX asrda avliyo Qo‘ychi (Bekmurod polvon) halfa dafn etilgan
27.	Qabriston	**“Bozorboshi” MFY**	Nomsiz	**O‘rtamozor**	Mahalliy hududning o‘rta qismida joylashganligi uchun.
28.	Qabriston	**“Oqbosh” MFY**	Nomsiz	**Yangi Oqbosh**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
29.	Qabriston	**“Yo‘lamatol” MFY**	Nomsiz	**Go‘dakmozor**	Ushbu hududda go‘daklarning qabri ko‘pligi sababli.
30.	Qabriston	**“G‘ofur G‘ulom” MFY**	Nomsiz	**G‘afur G‘ulom**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
31.	Qabriston	**“Barhayot” MFY**	Nomsiz	**Barhayot**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
32.	Qabriston	**“Uzumzor” MFY**	Nomsiz	**Changalmozor**	Hududning shakli changal ko‘rinishida bo‘lganligi uchun.
33.	Qabriston	**“Yo‘lamatol” MFY**	Nomsiz	**Qochar**	Mahalliy aholi orasida shunday atama mavjud bo‘lgan. (izohi keltirilmagan)
34.	Qabriston	**“Xo‘jaariq” MFY**	Nomsiz	**Xo‘ja Bosmonota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo

					og‘a-inilardan biri Xo‘ja Bosmon ota dafn etilgan.
35.	Qabriston	**“O‘qchi” MFY**	Nomsiz	**Yetti O‘qchi**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
36.	Qabriston	**“Do‘stlik” MFY**	Nomsiz	**Xo‘jamurodota**	Shunday ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
37.	Qabriston	**“Ko‘tarma” MFY**	Nomsiz	**Shahidtepa**	Ushbu hududda shaxid vafot etganlarga atab qo‘yilgan.
38.	Qabriston	**“Uvaysiy” MFY**	Nomsiz	**Beshmirza**	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
39.	Qabriston	**“Ko‘tarma” MFY**	Nomsiz	**O‘ratepa**	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
40.	Qabriston	**“Rohat” MFY**	Nomsiz	**Bandimozor**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri Bandi ota dafn etilgan.
41.	Qabriston	**“Alitepa” MFY**	Nomsiz	**Bo‘rontepa**	Mahalliy hududning tepalik qismi mavjud bo‘lib, tabiiy yengil bo‘ronlar sodir bo‘lib turgan.
42.	Qabriston	**“Guliston” MFY**	Nomsiz	**Suvbo‘yi**	Mahalliy hududning yonidan oqib o‘tuvchi kanal bo‘yida joylashgan.
43.	Qabriston	**“Yo‘lamatol” MFY**	Nomsiz	**Yo‘lamatol**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
44.	Qabriston	**“Oqbosh” MFY**	Nomsiz	**Noraybo‘ri**	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
45.	Qabriston	**“Yangi hayot” MFY**	Nomsiz	**Yangihayot**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
46.	Qabriston	**“Birlik” MFY**	Nomsiz	**Bo‘riboshi**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.

47.	Qabriston	**“Barhayot” MFY**	Nomsiz	**Abdurazzoqota**	Shunday ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
48.	Qabriston	**“Ravot” MFY**	Nomsiz	**Adir**	Mahalliy aholi kelishgan holda adirli hududiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
49.	Qabriston	**“Hasanmergan” MFY**	Nomsiz	**Hasanmergan adir**	Mahalliy aholi kelishgan holda adirli hududiga va nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
50.	Qabriston	**“To‘lg‘a” MFY**	Nomsiz	**Oqbosh**	Mahalliy chegaradosh “Oqbosh” MFY hududi bilan oralig‘ida joylashgan umumiy qabriston
51.	Qabriston	**“Polvontosh” MFY**	Nomsiz	**Yangi Polvontosh**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
52.	Qabriston	**“Sho‘rqaqir” MFY**	Nomsiz	**Mingtut**	Mahalliy hududning tut ko‘chatlari o‘tkazilgan qizmida joylashgan.
53.	Qabriston	**“Qoraqo‘rg‘on” MFY**	Nomsiz	**Oqmozor**	Hududning tuprog‘i oq rangli ko‘rinishda bo‘lgan qismida joylashganligi bois.
54.	Qabriston	**“Bozorboshi” MFY**	Nomsiz	**Chuqurmozor**	Hududning chuqur qismida joylashganligi bois shunday nom berilgan.
55.	Qabriston	**“Shomat” MFY**	Nomsiz	**Yuqori Shomat**	Mahalliy hududning yuqori qismida joylashganligi bois.
56.	Qabriston	**“Navro‘z” MFY**	Nomsiz	**Tatarlar**	Mahalliy hududda tatar millatiga mansub aholi uchun tashkil etilgan.
57.	Qabriston	**“Nayman” MFY**	Nomsiz	**EshonBobo**	Shunday ismli, ilmli shaxs, eshon yashab o‘tgan va dafn etilgan.
58.	Qabriston	**“Konchilar” MFY**	Nomsiz	**Koreyslar**	Mahalliy hududda koreys millatiga mansub aholi uchun tashkil etilgan.
59.	Qabriston	**“Oybek” MFY**	Nomsiz	**Soybo‘yi**	Shunday ismli, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.

60.	Qabriston	**“Durafshon” MFY**	Nomsiz	**Shukurmergan**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
61.	Qabriston	**“Bozorboshi” MFY**	Nomsiz	**Tepamozor**	Mahalliy hududning tepalik qismida joylashgan.
62.	Qabriston	**“Qo‘rg‘oncha” MFY**	Nomsiz	**Xo‘jaota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan shaxs, 7 avliyo og‘a-inilardan biri, o‘z davrida 6-7 oy davonida Haj ziyoratiga piyoda borib kelgan inson Hoji ota yashab o‘tgan va dafn etilgan. Katta eshon bo‘lganligi bois Xo‘ja ota nomi berilgan.
63.	Qabriston	**“Nayman” MFY**	Nomsiz	**Nayman**	Mahalliy aholi kelishgan holda hududning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
64.	Qabriston	**“Oqbosh” MFY**	Nomsiz	**Noray**	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga hamda aholi kamgapligiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
65.	Qabriston	**“Ershi” MFY**	Nomsiz	**Yangi Oqterak**	Mahalliy aholi kelishgan holda eski qabriztonning nomiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
66.	Qabriston	**“Ershi” MFY**	Nomsiz	**Eski Oqterak**	Mahalliy hududda oqteraklar ko‘p o‘tkazilgan qismida joylashgan.
67.	Qabriston	**“Gar-gar” MFY**	Nomsiz	**Qulmonbuva**	Shu isml, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
68.	Qabriston	**“Qovunchi” MFY**	Nomsiz	**Tutzor**	Ushbu hududda tut ko‘chati ko‘p ekiladi.
69.	Qabriston	**“Xo‘jaariq” MFY**	Nomsiz	**Ulug‘vor**	Ulug‘ insonlar yashab o‘tib, dafn etilgan.
70.	Qabriston	**“Alitepa” MFY**	Nomsiz	**Oqto‘nliota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri Oqto‘nli ota dafn etilgan.
71.	Qabriston	**“Alitepa” MFY**	Nomsiz	**Davkarota**	Shu isml, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.

72.	Qabriston	**“Boboxuroson” MFY**	Nomsiz	**Berdibuva**	Shu isml, ilmli shaxs yashab o‘tgan va dafn etilgan.
73.	Qabriston	**“Qorabog‘ish” MFY**	Nomsiz	**Qorovulota**	Mahalliy aholi orasida shu atama yuritilgan va chekka hududni ajratib turgan.
74.	Qabriston	**“Boboxuroson” MFY**	Nomsiz	**Boboxurosonota**	XIII asda Xuroson yurtidan kelgan avliyo bobo dafn etilgan
75.	Qabriston	**“Tosh yo‘li” MFY**	Nomsiz	**Bo‘ston**	Mahalliy aholi hududning tarkibidagi ko‘cha nomiga hamda aholi kamgapligiga monand ushbu nomni qo‘ygan.
76.	Qabriston	**“Mirishkor” MFT**	Nomsiz	**Mirishkorota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri Mirishkor ota dafn etilgan.
77.	Qabriston	**“Chilon” MFY**	Nomsiz	**Mingtepa**	Hududdagi Mingtepa tarixiy joyning chekka tepalik qismida joylashganligi sabab shunday atalgan.
78.	Ziyoratgoh	**“Shomat” MFY**	Nomsiz	**Quloqbuloq**	Quloq kassalliklariga shifo bo‘luvchi buloq.
79.	Ziyoratgoh	**“Chilon” MFY**	Nomsiz	**Qo‘ychixalfa**	XIX asrda avliyo Qo‘ychi (Bekmurod polvon) halfa dafn etilgan ziyoratgoh.
80.	Ziyoratgoh	**“Shahriston“ M FY**	Nomsiz	**Tabib**	Siniqchi olim, xalq tabibi mulla Abdujabbor tabib Muhammadisoq o‘g‘li davolash maqsadida foydalanilgan buloq.
81.	Ziyoratgoh	**“Durafshon” MFY**	Nomsiz	**Lazizbuloq**	Qadimiy shifobaxsh lazzatli buloq.
82.	Ziyoratgoh	**“Qovunchi” MFY**	Nomsiz	**Xonbuvish bulog‘i**	O‘tmishda buloqdan ko‘plab mahallalar ichimlik suvi sifatida foydalanganlar. Aholiga buloq ustda o‘tirgan buvi ko‘ringan. Xalq buloq egasi - Xonbuvish deb keladi.
83.	Ziyoratgoh	**“Qoraqo‘rg‘on” MFY**	Nomsiz	**Go‘zalota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri - Go‘zal ota dafn etilgan ziyoratgoh

84.	Ziyoratgoh	**“Xo‘jaariq” MFY**	Nomsiz	**Xo‘ja Bosmonota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri Xo‘ja Bosmon ota dafn etilgan ziyoratgoh
85.	Ziyoratgoh	**“Mirishkor” MFY**	Nomsiz	**Mirishkorota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri Mirishkor ota dafn etilgan ziyoratgoh
86.	Ziyoratgoh	**“Qoraqo‘rg‘on” MFY**	Nomsiz	**Oqmozorota**	Hayroniy valiyning oq tuyasi cho‘kkan joy. XII-XIII asrlar
87.	Ziyoratgoh	**“Rohat” MFY**	Nomsiz	**Bandiota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri Bandi ota dafn etilgan ziyoratgoh
88.	Ziyoratgoh	**“Boboxuroson” MFY**	Nomsiz	**Boboxurosonota**	XIII asda Xuroson yurtidan kelgan avliyo bobo dafn etilgan ziyoratgoh
89.	Ziyoratgoh	**“Boboxuroson” MFY**	Nomsiz	**Xotinqum**	O‘tmishda Xorazim shohining qizini davolash uzun olib kelingan shifobaxsh qum
90.	Ziyoratgoh	**“Alitepa” MFY**	Nomsiz	**Alitepa**	Qadimiy Dovon davlati hukumdorining arki a’losi Alitepa mahallasiga joylashgan
91.	Ziyoratgoh	**“Oqbosh” MFY**	Nomsiz	**Oqboshota**	Sochlariga erta oq tushgan odamlarga shifo bo‘luvchi buloqlarga ega bo‘lgan ziyoratgoh
92.	Ziyoratgoh	**“Qushchi” MFY**	Nomsiz	**To‘rabobo**	Poytiqlik eshon Sultonxonto‘ra ziyoratgohi
93.	Ziyoratgoh	**“Yo‘lamatol” MFY**	Nomsiz	**Mulla To‘ychi ziyoratgohi**	Mulla To‘ychi dafn etilgan ziyoratgoh. XVIII asr.
94.	Ziyoratgoh	**“Qoraqo‘rg‘on” MFY**	Nomsiz	**Ulkan chinor**	Chinorning ulkanligi sababli
95.	Ziyoratgoh	**“Boboxuroson” MFY**	Nomsiz	**Oqto‘nliota**	XII-XIII asrlarda yashab o‘tgan 7 avliyo og‘a-inilardan biri Oqto‘nli ota dafn etilgan ziyoratgoh
96.	Istirohat bog‘i	**“Guliston” MFY**	Nomsiz	**Muhammad Yusuf**	2013-yil tashkil etilgan. Mahalliy aholi shu hududning har tomonlama jihatiga

					monand ushbu nomni qo‘ygan
97.	Istirohat bog‘i	**“O‘zbekiston” MFY**	Nomsiz	**Bolajon**	2001-yil tashkil etilgan. Mahalliy aholi shu hududning har tomonlama jihatiga monand ushbu nomni qo‘ygan